

PUBLITSISTIK JANRDAGI NASHR SARLAVHALARIDA MAISHIY MAVZUDAGI MAQOLLAR PRAGMATIKASI

Turdaliyeva Dilfuza Salohiddinovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti doktoranti, PhD.

Annotatsiya: Ushbu maqolada publitsistik janrdagi nashr sarlavhalarida maishiy mavzudagi maqollar pragmatikasi ayrim xalq maqollari yordamida yoritib berilgan. Masalan, bugungi kunda mamlakatimizda suvga bo‘lgan ehtiyoj va undan oqilona foydalanish maqsadida “Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q” maqolidan sarlavha sifatida unumli foydalanilgan holda yozilgan maqola tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: maqol, sarlavha, urf-odat, madaniyat, fikr, g‘oya, qarashlar, fakt, resurs.

Аннотация: В данной статье с помощью некоторых народных пословиц освещается прагматика пословиц на тему домашнего хозяйства в названиях публикаций публицистического жанра. Например, с целью анализа потребности в воде в нашей стране сегодня и ее рационального использования была проанализирована статья, написанная с эффективным использованием в названии пословицы «Вода, которая течет перед тобой, не имеет цены».

Ключевые слова: пословица, название, традиция, культура, мнение, идея, взгляды, факт, ресурс.

Annotation: In this article, the pragmatics of proverbs on the topic of domesticity in the titles of publications in the journalistic genre is highlighted with the help of some folk proverbs. For example, an article written with effective use of the proverb "The water that flows in front of you has no value" as a title was analyzed in order to analyze the need for water in our country today and its rational use.

Key words: proverb, title, tradition, culture, opinion, idea, views, fact, resource.

“Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q: O‘zbekistonda suv resurslaridan qanday foydalaniladi?” sarlavhali maqolada¹ “Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q” maqoli sarlavha sifatida qo‘llangan. Madaniyatimizda va urf-odatlarimizda suvni qadrlash, uni toza saqlash haqida ko‘plab maqol va amaliyotlarning mavjudligiga qaramasdan, afsuski, bugungi kunda hayot uchun zarur resurs haddan tashqari ko‘p sarflanadi.

Maqola muallifi to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Agar hozirdan suv tejash madaniyati keng singdirilmasa va ushbu resursni asrashga doir keskin choralar ko‘rilmasa,

¹ <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723/>

vaziyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarga olib kelishi muqarrar”.¹ Iqtisodchi suv qimmat bo‘lgan va ehtiyotlab ishlatiladigan davlatlar: Germaniya va Kanada haqida yozar ekan, quyidagi faktlarni keltiradi: “Ko‘pgina mamlakatlarda ichimlik suvi manbalarining keskin qisqarishiga qaramasdan ushbu resursning narxi uning haqiqiy qiymatini aks ettirmaydi. Dunyoda barcha davlatlar orasida Germaniya eng kam suv iste‘mol qiladigan va obihayot uchun eng Yuqori narxlarga ega mamlakatlardan biri bo‘lib, har yili kishi boshiga o‘rtacha 311 kubometr suv ishlatiladi va har bir kubometrning narxi 1, 91 dollarga teng. Rivojlangan davlatlar orasida eng past narxga ega va jon boshiga eng ko‘p suv iste‘mol qilinadigan mamlakatlardan biri bu – Kanada bo‘lib, ushbu davlatda har yili kishi boshiga 1420 kubometr suv iste‘mol qilinadi va har bir kubometr uchun narx 0, 40 dollarni tashkil etadi”. Demak, suv arzon va “oldingdan oqib o‘tsa”, qadrsizlanadi va isrofgarchilikka yo‘l qo‘yiladi.

Mutaxassislarning taxminiga ko‘ra, 2040-yilga kelib, jahonning 33 davlati suvning o‘ta tanqisligi muammosiga duch keladi. Bu 33 mamlakat orasida Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi, jumladan, O‘zbekiston ham mavjud. Shu o‘rinda sarlavhada keltirilgan maqolning ma‘nosi yanada yorqinlashadi. Muallif “Oldingdan oqar suvning qadri yo‘q” degan maqolning haqligini ta‘kidlagan holda, O‘zbekistonda suv bilan ta‘minlanish holatini misol sifatida keltiradi: “Shaharlardagi suvta‘minot tizimlarida suv juda arzon narxda tarqatiladi. 69 shahar, 335 ta qishloq va 2902 qishloq aholisining suvga bo‘lgan talabi yerosti suvlari zaxiralari bilan qoplanadi. Afsuski, ko‘pchilik hollarda xonadonlarda hatto, o‘lchov moslamalari ham o‘rnatilmagan. Qishloq joylarda va shahar markazidan uzoq va markazlashtirilgan quvurli tizim mavjud bo‘lmagan joylarda odamlar o‘zlari qazib olgan quduqlardan foydalanadilar. Bu quduqlar aksariyat hollarda litsenziyaga ega emas, xo‘jaliklarda o‘lchovsiz va keragidan ortiq darajada suvdan foydalanish yerosti zaxiralaridagi manbaning kamayishiga olib keladi”. Iqtisodchi hayotimizga oid eko-iqtisodiy muammoni ko‘tarar ekan, o‘quvchi diqqatini maqola sarlavhasidanoq shu maqol bilan ifodalangan muammoga qaratadi: butun maqola davomida suv qimmat bo‘lgan mamlakatlarda uning tejab ishlatilishi, ichimlik suvi bilan arzon ta‘minlangan mamlakat hududlarida juda ko‘p isrofgarchilikka yo‘q qo‘yilayotgani takror-takror uqtiriladi. Mazkur muammoni yechish uchun o‘zining suvni “qadrlayotgan” mamlakatlar tajribasiga tayanib quyidagi tavsiyalarni keltiradi: “Avstraliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarning eng ilg‘or amaliyotlarini inobatga olgan holda, O‘zbekistonda suvni muhofaza qilish va uni samarali qo‘llash uchun quyidagilarni tavsiya etsa bo‘ladi:

¹ <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723/>

1) aholining uy xo‘jaligi va qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish talabini qondirish uchun suvni barqaror boshqarish tizimi rejalarini tuzish;

2) irrigatsiya tizimini nomarkazlashtirish va qishloq xo‘jaligida bozorga asoslangan suv taqsimoti tizimini yaratish;

3) sanoatda, qishloq xo‘jaligida va uy xo‘jaliklarida qayta ishlangan chiqindi suvdan foydalanish bo‘yicha amaliyotlarni joriy qilish;

4) yomg‘ir suvini yig‘ish uchun maxsus uskunalarni o‘rnatish va xususiy suvni qayta ishlash tizimlarini o‘rnatishni rag‘batlantirish;

5) suv etkazib beruvchi xizmatlarning mas’uliyatini va shaffofligini oshirish;

6) uy xo‘jaliklarida ichimlik suvdan foydalanish uchun muayyan kvotalar yaratish;

7) ichimlik suvini keragidan ortiqcha ishlatish vaziyatida to‘lovlar miqdorini oshirish;

8) suv muammolari mavzusida aholi saviyasini oshirish, ularning nafaqat sug‘orish, balki, uy ro‘zg‘or sharoitlarida ham suvni qanday tejash mumkinligini o‘rganishlarini rag‘batlantirish”¹.

Ko‘rinadiki, maqola sarlavhasida keltirilgan maqol ushbu kontekstda o‘z o‘rnida qo‘llanib, yurtimizda ichimlik suvi bilan muammosiz, yetarlicha ta‘minlangan joylarda isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilayotgani, “oldimizdan oqayotgan suvning qadrlanmayotgani”, bu esa kelajakda yurtimiz uchun katta xavf keltirib chiqarishi, resurslardan o‘rinsiz foydalanish katta yo‘qotishlariga olib kelishi uqtiriladi.

Shuningdek, daryo.uz saytidagi “Otang – bozor, onang – bozor”. Qanday qilib iqtisodiy tushunchalar o‘zbek xalq maqollari va matallarida yoritilgan?”² sarlavhali maqola e‘tiborimizni tortdi. Maqola xulosasida muallif shunday fikrlarni keltiradi: “... xalqning ko‘p ming yillik aql-zakovati bilan yaratilgan maqol, matal hamda aniq iboralarida hozirgi zamon iqtisodiy hayotida ham faol qo‘llaniladigan fikr va g‘oyalar, qarash va dasturlar o‘z aksini topgan. Ular nazariya va qonunlar darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lsa-da, katta amaliy, axloqiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723>
2. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723/>
3. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723/>
4. <https://daryo.uz/k/2022/08/09/otang-bozor-onang-bozor-qanday-qilib-iqtisodiy-tushunchalar-ozbekiston-xalq-maqollari-va-matallarida-yoritilgan>
5. Шомаксудов Ш., Шорахмедов Ш. Ҳикматнома. – Тошкент: Энциклопедия, 1990.

¹ <https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/4723/>

² <https://daryo.uz/k/2022/08/09/otang-bozor-onang-bozor-qanday-qilib-iqtisodiy-tushunchalar-ozbekiston-xalq-maqollari-va-matallarida-yoritilgan>